

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.09.2020.T.111.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

AXROROVA MUNIRA IBRAGIMOVNA

**PASSIV QUYOSH ISITISH TIZIMLARI UCHUN ENERGIYA
TEJAMKOR SHAFFOF TO‘SIQLARNING ISSIQLIK
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Qarshi – 2024

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
technical sciences**

Axrorova Munira Ibragimovna

Passiv quyosh isitish tizimlari uchun energiya tejamkor shaffof to'siqlarning issiqlik samaradorligini oshirish..... 3

Ахророва Мунира Ибрагимовна

Повышение тепловой эффективности энергосберегающих прозрачных ограждений для пассивных солнечных систем отопления..... 25

Akhrorova Munira Ibragimovna

Improving the thermal efficiency of energy-saving transparent barriers for passive solar heating systems..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 53

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.09.2020.T.111.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

AXROROVA MUNIRA IBRAGIMOVNA

**PASSIV QUYOSH ISITISH TIZIMLARI UCHUN ENERGIYA
TEJAMKOR SHAFFOF TO‘SIQLARNING ISSIQLIK
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Qarshi – 2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/T4697 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida (www.qmi.uz) va «Ziyouet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyouet.uz) joylashtirilgan

Ilmiy rahbar: **Maxmudov Maxsud Idrisovich**
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Axadov Jobir Zamirovich**
texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Fayziyev To'liq Amirovich
texnika fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot: **"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti huzuridagi PhD 03.30.09.2020 T 111.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil 23 11 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti konferensiyalar zali. Tel.: (+99875) 224-02-89, faks (8375) 224-13-95, e-mail: kci@wdu.uz)

Dissertatsiya bilan Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining Axborot-resurs markazida tamishish mumkin (№ 119 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy. Tel.: (+99875) 224-02-89, faks (8375) 224-13-95, e-mail: kci@wdu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil 12 11 kuni tarqatildi.
(2024 yil 11 11 dagi № 25 raqamli reestr bayonnomasi)



G.N. Uzoqov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash r.a. / U.S. Professor

X.A. Davlonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi / U.S. Associate Professor

B. Urishev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qo'shildagi ilmiy seminar raisi / U.S. Professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda turar-joy binolarini isitish uchun energiya sarfini kamaytirish maqsadida qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, samaradorligini oshirish, quyosh isitish tizimlaridan, passiv quyosh isitish tizimlarini qo'llash asosida yoqilg'i energiya resurslarini tejash, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish orqali turar-joy binolarini isitish tizimi samaradorligini oshirish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi vaqtda tarmoqlar bo'yicha umumiy energiya iste'molining 22,8 foizi (90,646 million TJ) turar-joy binolari uchun sarflanadi¹. Turar-joy binolarini isitish uchun sarflanadigan an'anaviy yoqilg'i energiya resurslarini tejashda mavjud turar-joy binolarining konstruktiv tuzilishining xilma-xilligi jarayonni murakablashtiradi. Turar-joy binolarining energiya ta'minotida qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish energiya resurslarini ma'lum darajada tejash imkonini beradi. Shuning uchun turar-joy binolarida energiya bilan ta'minlash muammolarini hal qilishda passiv quyosh isitish tizimlaridan foydalanish samarali va istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Shuni e'tiborga olib, turar-joy binolarini isitish uchun energiya sarfini kamaytirish maqsadida passiv quyosh isitish tizimiga ega energiya tejamkor shaffof to'siqlarning issiqlik samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda turar-joy binolarini quyosh isitish tizimlaridan passiv va aktiv turlarini yangi muhandislik yondashuvlari asosida takomillashtirishning ilmiy-texnikaviy asoslarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, passiv quyosh isitish tizimiga ega turar-joy binolari isitish tizimining ish tamoyili, ularda sodir bo'ladigan issiqlik-texnik jarayonlarining matematik modellarini ishlab chiqish, issiqlik samaradorligini baholash, massa almashinuvi jarayonini tadqiq qilish, issiqlik jamlovchilarning yangi turlarini tanlash, geometrik o'lchami, issiqlik-fizikaviy parametrlarining optimal va ratsional qiymatlarini aniqlash, isitish tizimining energiya samaradorligini oshirishda passiv quyosh isitish tizimlaridan foydalanish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlar ustuvor hisoblanadi. Shu sababli, turar-joy binolariga integratsiyalashgan passiv quyosh isitish tizimlarida energiya tejamkor qurilmalarni ishlab chiqish, tizimning samaradorligini oshirish va ularning issiqlik-texnik parametrlarini ilmiy asoslash dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Respublikamizda turar-joy binolarini isitish uchun sarflanadigan energiya miqdorini kamaytirish maqsadida tabiiy yoqilg'i-energiya resurslarni tejashga qaratilgan qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, energiya tejamkor texnologiyalar va tizimlarni joriy etish, passiv quyosh isitish tizimlarining samaradorligini oshirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi

¹ <https://www.iea.org/data-and-statistics/data-tools/energy-statistics-data-browser?country=WORLD&fuel=Energy%20consumption&indicator=TFCSHareBySector>

PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”² gi farmonida “...uy-joy-kommunal xo‘jaligi, ijtimoiy soha ob‘yektlari va boshqa sohalarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish va energiya samaradorligini oshirish...” bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, xususan, turar-joy binolariga quyosh isitish tizimlarini integratsiya qilish, shaffof to‘siqlar orqali issiqlik yo‘qotilishlarini kamaytirish, izolyatsion materiallarning optimal o‘lchamini aniqlash, isitish tizimi uchun energetik qurilmalarning geometrik va issiqlik-texnikaviy parametrlarini optimallashtirish, issiqlik xossalarini hisoblashning takomillashgan usulini ishlab chiqish va joriy etish muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi PF-220-sonli “Energiya tejavchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi, 2023-yil 16 fevraldagi PQ-57-son “2023 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiqotlar O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining IV. “Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish usullarini ishlab chiqish, nanotexnologiya, fotonika va boshqa zamonaviy texnologiyalar asosida yangi texnologiyalar va qurilmalar ishlab chiqish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Quyosh isitish tizimlaridan passiv isitish tizimini ishlab chiqish, turli xil issiqlik akkumulyatorlarini qo‘llash, geometrik va issiqlik-texnikaviy parametrlarini optimallashtirish, shuningdek ularning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini baholash bo‘yicha taniqli xorijlik olimlar, jumladan, J. Douglas, R. Dennis, E. Morse, J. Duffi, E. Mazria, B. Anderson, X. Zhang, A. Morgan, A. Bolatturk, O. Kon, I. Alsurakji, R. Abdallah, A. Mahmoud, Amjad El-Qanni, O. Kaynakli, C. Yuce, O. Dogan, N. Daouas, Subhash Mishra, S. Varshney, A. Dombayci, H. Ozturk, M. Mousa, M. Almarshadi, A. Ucar, F. Balo, W. Yang, Д.А. Михеев, В.М. Захаров, Н.Н. Смирнов kabi yetakchi olimlar katta hissa qo‘shishgan.

Respublikamizda passiv quyosh isitish tizimlarini rivojlantirish va takomillashtirish bo‘yicha R.R. Avezov, N.R. Avezova, Yu.K. Rashidov, M. Kenisarin, G‘.N. Uzoqov, K.A.Samiyev, O. Azimov, A.S. Dusyarov va boshqalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan. Xususan, ular tomonidan quyosh passiv isitish tizimini ishlab chiqish turar-joy binolarida harorat rejimlarini ta‘minlash,

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

dinamik mikroiklim tizimlarini yaratish, isitish tizimi uchun energetik qurilmalarning geometrik va issiqlik-texnikaviy parametrlarini optimallashtirish, ularning issiqlik hisobi uchun ilmiy asoslarini ishlab chiqish va rivojlantirish, shuningdek ularning energiya samaradorligini oshirish, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini baholash borasida ilmiy tadqiqot ishlari bajarilgan.

Turar-joy binolarini isitish tizimlari uchun energiya tejash nuqtai nazaridan yuqorida nomlari keltirilgan tadqiqotchilarning ilmiy ishlari passiv quyosh isitish tizimlarida ma'lum ijobiy natijalar bilan qo'llanilsada, ammo passiv quyosh isitish tizimlari uchun energiya tejamkor shaffof to'siqlarning issiqlik samaradorligini oshirish bo'yicha taqdiqotlar yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro muhandislik-texnologiya instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Iqtisodiyot tarmoqlarida elektr va issiqlik ta'minoti tizimlarining ishonchliligi va samaradorligini noan'anaviy energiya manbalaridan foydalanib oshirish tadbirlarini tadqiq qilish va ishlab chiqish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi passiv quyosh isitish tizimlari uchun energiya tejamkor shaffof to'siqlarning issiqlik samaradorligini oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

turar-joy binolariga integratsiya qilingan passiv quyosh isitish tizimining energiya samaradorligini oshirish imkonini beruvchi suyuqlikli deraza blokiga ega isitish tizimining issiqlik sxemasini ishlab chiqish;

shaffof to'siq, suyuqlik, sirkulyatsiya nasosi, uch tomonlama klapan, suyuqlik harakatlanuvchi quvurlar, kengaytirish baki, sovuq suv kiradigan quvur, boshqaruvchi mikrokontrollerdan iborat bo'lgan energiya tejoychi suyuqlikli deraza blokining eksperimental qurilmasini ishlab chiqish;

shaffof to'siqli deraza blokiga ega turar-joy binolarining issiqlik xususiyatlarini hududning iqlim sharoitini hisobga olgan holda aniqlash imkonini beruvchi issiqlik balansi tenglamalari matematik modelini ishlab chiqish;

passiv quyosh isitish tizimiga ega turar-joy binolarining tashqi devorlari izolyatsiya qatlami qalinligining optimal qiymatini gradus-sutkalari asosida hisoblovchi kompyuter dasturini ishlab chiqish;

tabiiy sharoitda o'tkazilgan tajriba tadqiqotlari natijalarini umumlashtirish asosida suyuqlikli deraza blokidan chiquvchi suv haroratini kunning istalgan vaqti uchun quyosh radiatsiyasi, shamol tezligi va atrof-muhit haroratiga bog'liq holda aniqlash imkonini beradigan empirik tenglama olish.

Tadqiqotning obekti sifatida energiya tejoychi shaffof to'siqli deraza bloki energetik qurilmasi hamda qurilmaning issiqlik-texnik parametrlari qabul qilingan.

Tadqiqotning predmeti energiya tejoychi shaffof to'siqli deraza blokida sodir bo'ladigan issiqlik jarayonlari va passiv isitish tizimlarining issiqlik samaradorligini tadqiq qilish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida quyosh nurlanish energiyasini issiqlik energiyasiga aylantirish, matematik modellashtirish, sonli hisoblashlarda

issiqlik texnikasining nazariy asoslari, o'xshashlik va o'lchamliklar nazariyasi, tabiiy sharoitda tajriba tadqiqot o'tkazish va natijalarni umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk marotaba turar-joy binolarini isitish tizimlariga suyuqlikli deraza blokini integratsiyalash orqali binoning energiya samaradorligini oshirish imkonini beradigan, shaffof to'siq, suyuqlik, sirkulyatsiya nasosi, uch tomonlama klapan, suyuqlik harakatlanuvchi quvurlar, kengaytirish baki, sovuq suv kiradigan quvur, boshqaruvchi mikrokontrollerdan iborat suyuqlikli deraza blokining issiqlik sxemasi ishlab chiqilgan (FAP 2527);

isitish uchun sarflanadigan an'anaviy energiya resurslarini tejash imkonini beradigan, shaffof to'siq, suyuqlik, sirkulyatsiya nasosi, uch tomonlama klapan, suyuqlik harakatlanuvchi quvurlar, kengaytirish baki, sovuq suv kiradigan quvur, boshqaruvchi mikrokontrollerdan iborat bo'lgan energiya tejoychi suyuqlikli deraza bloki qurilmasi ishlab chiqilgan;

tashqi havo, quyosh nurlanish energiyasi, shamol tezligi, turar-joy binosi konstruksiyalarining issiqlik-texnik parametrlarini hisobga olgan holda, suyuqlik oqimli deraza bloklari uchun issiqlik balansi tenglamalarining statik va dinamik holatlardagi harorat rejimini hisoblash imkonini beradigan matematik model ishlab chiqilgan;

suyuqlikli deraza bloki issiqlik rejimini tajribaviy tadqiqot natijalarini umumlashtirish asosida quyosh nurlanish energiyasi, shamol tezligi va atrof-muhit haroratiga bog'liq holda deraza blokidan chiquvchi suyuqlik haroratini kunning istalgan vaqti uchun aniqlash imkonini beradigan empirik tenglama olingan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

turar-joy binolariga integratsiya qilingan passiv quyosh isitish tizimiga ega deraza bloki issiqlik samaradorligini oshirish maqsadida suyuqlikli deraza bloki qurilmasi ishlab chiqilgan;

passiv quyosh isitish tizimiga ega suyuqlikli deraza blokini issiqlik-texnik hamda izolyatsion materialning optimal qiymatini amaliy va nazariy ma'lumotlarni taqqoslash uchun Python kompyuter dasturi yordamida modellashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ilmiy tadqiqot ishlarining ishonchliligi zamonaviy tadqiqot usuli va o'lchash vositalari yordamida olinganligi, eksperimental tadqiqot natijalarini tekshirishda ishonchli hamda sinalgan modellashtirish usullaridan foydalanilganligi, tajribalarning tabiiy sharoitda o'tkazilganligi, olingan hisobiy va tajribaviy natijalarning mosligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, suyuqlikli deraza blokida harorat rejimi, quyosh radiatsiyasi, atrof muhit harorati, issiqlik-texnikaviy va geometrik parametrlariga bog'liqligini hisoblash imkonini beruvchi issiqlik balansining matematik modeli, issiqlik balansi tenglamalari, issiqlik jarayonlarini matematik modellashtirish va hisoblash algoritmi yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati, turar-joy binolarida passiv quyosh isitish tizimidan foydalanish hisobiga an'anaviy yoqilg'i-energetik resurslarini tejash va atrof-muhitga CO₂ chiqindilari miqdorini kamaytirishga xizmat qiluvchi takomillashtirilgan suyuqlikli deraza bloki ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Turar-joy binolarida energiya tejash va issiqlik samaradorligini oshirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

suyuqlikli deraza blokiga ega isitish tizimining issiqlik sxemasi uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "Intellectual mulk markazi" davlat muassasasi tomonidan foydali modelga patent guvohnomasi olingan (№ FAP 2527; 27.06.2024). Natijada, turar-joy binolariga integratsiya qilingan energiya tejamkor suyuqlikli deraza bloki qurilmasi ishlab chiqilgan.

suyuqlikli deraza bloki qurilmasi "Buxoro issiqlik manbai" DUK binosida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining 2024-yil 27-iyundagi №04-13-4445-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, suyuqlikli deraza bloki qurilmasi bilan isitish mavsumida birlik yuzaga uchun 24 706 so'm iqtisodiy samaradorlikka erishilgan;

turar-joy binolarining tashqi devorlarida energiya yo'qotilishlarini kamaytirish maqsadida optimal o'lchamlari ilmiy asoslangan izolyatsiya materiali "WEGA SHOP STROY" MChJ ko'p qavatli turar-joy binosida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining 2024-yil 27-iyundagi №04-13-4445-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, turar-joy binolarining tashqi devorni izolyatsiya materiali (mineral tola) bilan qoplash orqali yillik isitish va sovutish mavsumida tashqi devorning birlik yuzasida 78,501 kVt·soat yoqilg'i energiyasini tejashga hamda 23 158 so'm iqtisodiy samaradorlikka erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan 1 ta xalqaro va 5 ta respublika jurnallarida ilmiy maqola, xalqaro jurnallarda 2 ta maqola, xalqaro va respublika ilmiy anjumanlarda 8 ta tezis nashr etilgan hamda Adliya vazirligi huzuridagi "Intellectual mulk markazi" davlat muassasasi tomonidan 1 ta foydali modelga patent va 3 ta EHM dasturiga mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalar, 49 ta rasm va 37 ta jadvaldan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 117 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusi doirasida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, ilmiy tadqiqot ishi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xalqaro va respublika

miqyosidagi ilmiy tadqiqotlarning o'rganilganlik darajasi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari keltirib o'tilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, ilmiy ishlarni chop etilganlik haqidagi ma'lumotlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Passiv quyosh isitish tizimlari tahlili va ilmiy tadqiqot holati”** nomli birinchi bobida jahonda va respublikamizda mavjud passiv quyosh isitish tizimlarining konstruktiv yechimlarining tahlili, passiv quyosh isitish tizimlaridan foydalanishning hozirgi holati va mavjud quyosh isitish tizimlarining imkoniyatlari tahlili keltirilgan. Jahonda va respublikamizda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, turli konstruksiyali suyuqlikli deraza bloklarining issiqlik samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar: optimal geometrik o'lchamlari, shaffof to'siqlarning issiqlik izolyatsiyasi, issiqlik-texnikaviy parametrlari taqdim etilgan.

Passiv quyosh isitish tizimida suyuqlikli deraza bloklarini qo'llash orqali suyuqlik haroratini o'zgartirish uchun zarur bo'lgan issiqlikni to'liq quyosh energiyasi yordamida qoplash, ushbu tizimni joriy etish bo'yicha texnologik yechimlarni ishlab chiqish, suyuqlik oqimli deraza bloklarini iqtisodiy samaradorligini baholash bo'yicha yetarlicha tadqiqot ishlari amalga oshirilmagan.

Olib borilgan tadqiqot va tahlillar asosida passiv isitish tizimiga ega turar-joy binolarini isitish uchun energetik samaradorlikni oshirishga erishish ko'lami doirasida dissertatsiyaning maqsad va vazifalari shakllantirildi.


Respublikamiz iqlim sharoitlariga moslashtirilgan suyuqlikli deraza bloklarini ishlab chiqish, turar-joy binolari uchun deraza oynalari yuzasini kattalashtirish, shaffof to'siqlar sonini va issiqlik izolyatsiyasini oshirish, geometrik o'lchamlarini optimallashtirish kabi vazifalarni hal qilish orqali qurilmaning samaradorligini oshirish mumkinligi asoslab berildi.

Dissertatsiyaning **“Passiv quyosh isitish tizimi orqali shaffof to'siqlarida sodir bo'luvchi issiqlik jarayonlarini modellashtirish”** nomli ikkinchi bobida suyuqlik oqimli deraza bloki uchun passiv isitish tizimining issiqlik xossalari bo'yicha nazariy tadqiqot natijalari, statsionar va nostatsionar jarayonlar uchun matematik modellardan foydalangan holda olingan natijalarning tahlillari keltirilgan. Statsionar va nostatsionar jarayonlar uchun tuzilgan matematik modellardan olingan natijalar tajriba sinovi natijalari bilan taqqoslash yo'li orqali sinovdan o'tkazilgan. Chegaraviy shartlarning murakkabligi tufayli differensial tenglamalar sonli usullar yordamida, chekli ayirma usuli bilan yechilgan va hisoblash algoritmi Python dasturlash tilida amalga oshirilgan.

Tadqiqot natijalari 4 xonali na'munaviy turar-joy binosining issiqlik parametrlarini inobatga olgan holda, suyuqlikli deraza blokining issiqlik-texnikaviy parametrlarini va tashqi devor izolyatsiya materiali qatlamining o'lchamlarini o'rganishga bag'ishlangan.

Uch qatlamli suyuqlik oqimli deraza bloki uchun energetik samaradorlikni baholashning statsionar matematik modelini tuzish uchun uch qatlamli deraza blokida quyosh nuralnishi va haroratlar taqsimoti 1-rasmda tasvirlandi.

Suyuq moddalar orasida issiqlik sig'imi katta bo'lgan suyuqlik suv hisoblanadi. Shu sababli ko'plab tadqiqotchilar hisoblash ishlarida suyuqlik sifatida suvdan foydalanishgan.



1-rasm. Uch qatlamli deraza blokida suyuqlik oqimi.

1-rasmdagi T_{sh_1} –birinchi shaffof to'siq, T_{sh_2} – ikkinchi shaffof to'siq, T_{sh_3} –uchinchi shaffof to'siq, T_{ich} – ichki muhit, T_{kir} – shaffof to'siqqa kiruvchi suvning harorati, T_{chiq} – shaffof to'siqdan chiquvchi suvning harorati, I , I_o , I_i – quyosh nurlanishi mos ravishda sirtga tushuvchi, sirdan qaytuvchi va sirdan o'tgan nurlanish.

Suyuqlikli deraza blokidan chiquvchi suv haroratini quyidagicha ifodalaymiz:

$$T_{chiq} = \frac{IA_u + \alpha_{ich}T_{ich} + \alpha_{tash}T_{tash} + \dot{m}cT_{kir}}{\dot{m}c + \alpha_{ich} + \alpha_{tash}}. \quad (1)$$

Suyuqlik qatlami o'zlashtirgan foydali issiqlik oqimi Q , (Vt/m^2).


$$Q = \dot{m}c(T_{chiq} - T_{kir}). \quad (2)$$

Suyuqlik qatlami o'zlashtirishi mumkin bo'lgan maksimal issiqlik oqimi:

$$Q = \frac{\dot{m}c}{\dot{m}c + \alpha_{tash} + \alpha_{ich}} (IA_u + \alpha_{ich}(T_{ich} - T_{kir}) + \alpha_{tash}(T_{tash} - T_{kir})). \quad (3)$$


bu yerda α_{tash} , α_{ich} – tashqi va ichki muhitning konvektsiya yo'li bilan issiqlik berish koeffitsiyentlari, $Vt/(m^2 \cdot ^\circ C)$; A_u – suv oqimining nur yutish koeffitsiyenti.

2- rasmda suv oqimining sarfi bilan tizimdan chiquvchi suv haroratining o'zgarishi orasidagi bog'liqlik grafigi keltirilgan.



2-rasm. Tizimdan chiqayotgan suvning harorati (T_{chiq}): (a) T_{kir} -ning o'zgaruvchi qiymatlarida, A_u -doimiy; (b) A_u -ning o'zgaruvchi qiymatlarida T_{kir} -doimiy.

3- rasmda suv oqimining sarfi bilan issiqlik oqimining o'zgarishi orasidagi bog'liqlik grafigi keltirilgan.



3-rasm. Suv oqimli deraza blokida suv tomonidan o'zlashtirilgan issiqlik oqimi: (a) T_{kir} -ning o'zgaruvchi qiymatlarida, A_u -doimiy; (b) A_u -ning o'zgaruvchi qiymatlarida T_{kir} doimiy.

Demak, sonli usulda olingan natijalar tadqiqotlarni suyuqlik sarfini kichik qiymatlari uchun o'tkazish samarali ekanligini ko'rsatdi.


Nostatsionar holat uchun issiqlik balans tenglamasi tashqi oyna, ikkinchi(xona ichidagi) oyna va shaffof to'siqlar orasida joylashgan suyuqlik(suv) parametrlari uchun tuzildi(4- rasm).

Suyuqlikli deraza bloki uchun energetik samaradorlikni baholashning nostatsionar matematik modeli. Tashqi oyna uchun issiqlik balans tenglamasi atrof-muhit harorati, atrof-muhit bilan nurlanish yo'li bilan issiqlik almashinuvi, suyuqlik qatlami bilan konvektiv issiqlik almashinuvi va quyosh nurining issiqlik energiyasini yutilishini hisobga olgan holda issiqlik balasining matematik ifodasi quyidagicha yoziladi:

$$c_{o,1}m_{o,1}\frac{dT_{o,1}}{d\tau} = \alpha_{n,tash}F_1(T_{o,g} - T_{o,1}) + \alpha_{k,tash}F_1(T_{o,1} - T_{tash}) + \alpha_{k_1-s}F_1(T_s - T_{o,1}) + (\tau\alpha)_1F_1I, \quad (4)$$

bu yerda $c_{o,1}$, - tashqi oyananing solishtirma issiqlik sig'imi, $J/(kg \cdot ^\circ C)$; $m_{sh,1}$ - o yana massasi, kg ; $T_{o,1}$ - tashqi oyan harorati, K ; τ - vaqt, s ; $\alpha_{n,tash}$ - tashqi oyanadan atrofga nurlanish yo'li bilan issiqlik berish koeffitsiyenti, $Vt/(m^2 \cdot ^\circ C)$; $\alpha_{k,tash}$ - tashqi oyandan atrofga konveksiya yo'li bilan issiqlik berish koeffitsiyenti, $Vt/(m^2 \cdot ^\circ C)$; α_{k_1-s} - tashqi oyanadan suyuqlikka konveksiya yo'li bilan issiqlik berish koeffitsiyenti, $Vt/m^2 \cdot ^\circ C$; $(\tau\alpha)_1$ - tashqi oyananing effektiv nur yutish koeffitsiyenti; F_1 - tashqi oyananing yuzasi, m^2 ; I - tashqi oyanaga tushuvchi yig'indi quyosh nurlanishi Vt/m^2 , T_{tash} - atrof-muhit harorati, K ; $T_{o,g}$ - atrof-

muhitning nurlanish (osmon gumbazining) temperaturasi, K ; T_{o_1} – birinchi oyna harorati, K ; T_s - suyuqlik harorati, K .



4-rasm. Ikki qatlamli shaffof to‘siqlar orasidagi suyuqlik oqimi va haroratlar taqsimoti.

Ichki oyna uchun issiqlik balans tenglamasi:

$$c_{o_2} m_{sh_2} \frac{dT_{o_2}}{d\tau} = \alpha_{k_{ich}} F_2 (T_{ich} - T_{o_2}) + \alpha_{k_{2-s}} F_2 (T_s - T_{o_2}) + (\tau\alpha)_3 F_2 I, \quad (5)$$

bu yerda c_{o_2} - ichki oynaning solishtirma issiqlik sig‘imi, $J/(kg \cdot ^\circ C)$; m_{sh_2} oyna massasi, kg ; $\alpha_{k_{ich}}$ - ichki oyna va xona elementlari orasidagi nurlanish yo‘li bilan issiqlik berish koeffitsiyenti, $Vt/(m^2 \cdot ^\circ C)$; $\alpha_{k_{2-s}}$ - suyuqlikdan ichki oynaga issiqlik berish koeffitsiyenti, $Vt/(m^2 \cdot ^\circ C)$; F_2 - ichki oynaning yuzasi, m^2 ; T_{o_2} - ikkinchi oyna harorati, K ; T_{ich} - xona harorati, K ; $(\tau\alpha)_2$ - ichki oynaning effektiv nur yutish koeffitsiyenti.

Ikki qatlamli shaffof to‘siq(oynalar) orasida harakatlanuvchi suyuqlik uchun issiqlik balansi tenglamasi

$$c_s m_s \frac{dT_s}{d\tau} = \alpha_{k_{1-s}} F_s (T_{o_1} - T_s) + \alpha_{k_{2-s}} F_s (T_{o_2} - T_s) + c_s \dot{m}_s H \frac{dT_s}{dx} + (\tau\alpha)_s F_s I, \quad (6)$$

bu yerda c_s - suyuqlikning solishtirma issiqlik sig‘imi, $J/(kg \cdot ^\circ C)$; m_s - suyuqlik massasi, kg ; $\alpha_{k_{2-s}}$ - suyuqlikdan ichki shishaga issiqlik berish koeffitsiyenti, $Vt/(m^2 \cdot ^\circ C)$; H - suyuqlik ustuning balandligi, m ; F_s - suyuqlik qatlamining yuzasi, m^2 ; \dot{m}_s - suyuqlik oqimining sarfi, kg/s ; $(\tau\alpha)_s$ - suyuqlikning effektiv nur yutish koeffitsiyenti.

Suyuqlik qatlamining foydali issiqligi quyidagi formula yordamida hisoblanadi

$$Q_s = c_s \dot{m} (T_{chiq} - T_{kir}), \quad (7)$$

bunda T_{kir} - deraza oynalari orasiga kiruvchi suvning harorati, K ; T_{chiq} - oynalari orasidan chiquvchi suvning harorati, K .


Suyuqlik qatlamini isitishdagi samaradorlik quyida keltirilgan formula yordamida aniqlanadi:

$$\eta = \frac{Q_s}{I \cdot F_1}, \quad (8)$$

bu yerda Q_s – suyuqlik tomonidan o‘zlashtirilgan foydali issiqlik, Vt; I – tashqi oyna sirt yuzasiga tushgan quyosh nurlanishi, Vt/m²; F_1 - tashqi oynaning yuzasi, m².


(4)-(8) tenglamalar Laplas almashtirish usuli yordamida sonli yechilgan. Chegaraviy shartlar sifatida atrof-muhit harorati, qurilma yuzasiga tushadigan yig‘indi quyosh nurlanishi va shamol tezligi qabul qilingan. Suyuqlikli deraza blokining issiqlik xususiyatlarini aniqlash uchun Phyhon dasturlash tilida kompyuter dasturi ishlab chiqilgan (5-rasm).

Dissertatsiyaning **“Passiv quyosh isitish tizimli shaffof to‘siqlarning issiqlik rejimini tajribada tadqiq qilish”** deb nomlangan uchinchi bobida tajriba tadqiqot natijalari keltirilgan.



5-rasm. Suyuqlikli deraza blokida algoritmi.

Tajriba sinovi uchun tayyorlangan deraza blokida shaffof qatlam sifatida oddiy deraza oynasidan foydalanilgan. Suyuqlik oqimli deraza blokining sxematik diagrammasi 6- rasmda keltirilgan suv va etilenglikol suyuqliklaridan issilik tashuvchi suyuqliklar sifatida foydalanilgan.



6-rasm. Suyuqlik oqimli deraza blokiga ega isitish tizimining issiqlik sxemasi: 1- suyuqlikli deraza bloki; 2- sirkulyatsiya nasosi (suyuqlik aylanishi uchun); 3- uch tomonlama klapan; 4- suyuqlik harakatlanuvchi quvurlar; 5- kengaytirish baki (расширительный бак); 6- issiqlik almashtirgich (isitgich); 7- sovuq suv kiradigan quvur; 8- isitish asboblari; 9- boshqaruvchi mikrokontroller.

Passiv quyosh isitish tizimini tadqiq qilish uchun Buxoro muhandislik–texnologiya institutining “Fizika” kafedrasida o‘quv-ilmiiy poligonida 2 ta suyuqlik oqimli deraza bloki energetik qurilmalari yaratildi. Tajriba qurilmalari yog‘och, oyna, suyuqlik baki, sliikon quvurlardan tashkil topgan (7-rasm).




7-rasm. Suyuqlik oqimli deraza blokining ko‘rinishi.

Suyuqlik oqimli deraza blokning yuzasi $28,7 \text{ dm}^2$ ni tashkil etib, ishchi yuzasi $15,96 \text{ dm}^2$. Yog‘ochga oynalar germetik qilib yelimgangan. Oynalarning har birining qalinligi 6 mm dan va ular orasidagi masofa 8 mm. Tajriba qurilmasining biriga etilenglikol suyuqligi (ASTM D3306 standarti asosida tayyorlangan ko‘k

rangli etilenglikol suyuqlik) va ikkinchisiga esa suv bilan to'ldirilib tajribalar o'tkazildi.

Qurilmani dastlabki tajriba sinovi natijalari asosida issiqlik-texnik va konstruktiv parametr ko'rsatkichlari aniqlandi.

Suyuqlik oqimli deraza bloki qurilmasida suyuqliklar quyilib tabiiy sharoitda tajriba taqdiqoti o'tkazildi. Deraza oynasi sirtiga tushuvchi quyoshning nurlanish energiyasini suyuqliklar foydali issiqlikka aylantirish tizimidan chiquvchi suyuqlikning harorati eksperimental va sonli usulda aniqlandi(8 - rasm).




8 - rasm. Suyuqlik oqimli deraza blokida o'tkazilgan tajriba natijalari: $T_{etilgil_sim}$,

$T_{etilgil_exp}$ - etilenglikol suyuqligi uchun hisobiy va tajribaviy harorat qiymatlari; T_{suv_sim} ,


T_{suv_exp} - suv uchun hisobiy va tajribaviy harorat qiymatlari; T_{xona} - xona harorati.

8-rasmda suv va etilenglikol suyuqlikning shaffof to'siqlar orasidan chiquvchi suyuqliklarning haroratlarini hisoblash hisobiy va tajribaviy qiymatlari taqqoslandi. Grafikdan olingan natijalar shuni ko'rsatadiki tizimdan chiquvchi suyuqliklar haroratini sonli usulda olingan natijalar bilan tajribaviy yo'l bilan olingan natijalar 10 minut vaqt oralig'ida suv uchun o'rtacha 0,32 °C ga, etilenglikol suyuqligi uchun 0,34 °C ga farq qilmoqda. Olingan natijalarga asoslangan holda quyudagicha xulosa qilishimiz mumkin: Suyuqlik oqimli deraza bloki uchun tuzilgan issiqlik balansining matematik model va sonli usulda olingan natijalarning nisbiy xatoligi mos ravishda 3,37 % va 3,0 % ni, determinatsiya koeffitsiyenti ko'rsatkichlari 0,903 va 0,923 ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlar sonli usulda olingan natijaning adekvatligini ifodalaydi.

Suyuqlik oqimli deraza blokining xarakterli nuqtalaridagi haroratlar o'zgarish diagrammasi shaffof sirtlardan qaytuvchi ko'zga ko'rinmaydiga issiqlik nurlanishlari asosida **GTC 600 C** teplovizori yordamida o'lchandi va natijalar 9-rasmlarda keltirildi.



9-rasm. Suyuqlik oqimli deraza blokining teplovizion tasviri



10-rasm. Suyuqlik oqimining deraza blokidagi haroratining o'zgarishi

10- rasmda suyuqlik oqimli deraza blokining issiqlik tashuvchisi suv va etilengilikol suyuqliklari bo'lgan hol uchun deraza blokining xarakterli nuqtalaridagi haroratlar o'zgarish diagrammasi olindi. Natijada, issiqlik tashuvchisi suv bo'lgan deraza blokida kiruvchi nuqtasidagi harorat 18,7° C chiquvchi nuqtasidagi harorat 20,9 °C ga teng qiymatlar qaytd etildi. Issiqlik tashuvchisi etilengilikol suyuqligi bo'lgan deraza blokida kiruvchi nuqtasidagi harorat 19,7 °C chiquvchi nuqtasidagi harorat 22,1°C ga teng qiymatlar qaytd etildi.

Suyuqlikli deraza blokidan chiquvchi suyuqlikning haroratini aniqlash uchun tajribalarni rejalashtirish usullaridan “to'liq faktorli eksperiment” (Full Factorial Design) usulidan foydalanildi. Qaralayotgan holda issiqlik jarayonlariga atrof-muhit parametrlaridan shamol tezligi, quyosh nurlanishi va atrof-muhit temperaturasi ta'sir qiladi.

Suyuqlikli deraza blokidan chiquvchi suyuqlikning haroratini aniqlash uchun hisoblashlar validatsiyadan o'tgan matematik model tenglamalar sistemasidan foydalanildi. O'tkazilgan hisoblashlar natijasida qurilmadan chiquvchi suyuqlik haroratini aniqlash uchun regressiya matematik ifodasi olindi. Chegarviy shartlar sifatida birlik yuzaga tushuvchi yig'indi quyosh nurlanishi 0 dan 1200 Wt/m^2 gacha, atrof muhit harorati -20 °C dan 56.8 °C gacha va shamol tezligi 0 dan ,6 m/s gacha bo'lgan oraliqda regressiya matematik ifodasi o'rinlidir. Bino ichidagi xona harorati o'zgarmas 20 °C deb olindi.

Suv uchun regressiya matematik ifodasi

$$T_{chiq} = 16,36 - 0,33 \cdot \vartheta_{sh} + 0,02 \cdot I + 0,26 \cdot T_{at}. \quad (9)$$

Etilengilikol suyuqligi uchun regressiya matematik ifodasi

$$T_{chiq} = 17,003 - 0,502 \cdot \vartheta_{sh} + 0,023 \cdot I + 0,27 \cdot T_{at}. \quad (10)$$

9 va 10 tenglamalarning adekvatligi determinatsiya koeffitsiyenti orqali tekshirildi mos ravishda ko'rsatkichlar 0,96 va 0,94 ni tashkil etdi.

Dissertatsiyaning “**Shaffof to'siqli passiv quyosh isitish tizimlarining energetik samaradorligi va iqtisodiy ko'rsatkichlari**” nomli to'rtinchi bobida shaffof to'siqlarning energetik, issiqlik samaradorligi, shaffof to'siqlarning iqtisodiy ko'rsatkichlari, issiqlik-texnikaviy parametrlarining ko'rsatkichlari, passiv quyosh isitish tizimlarining ekologiyaga ta'sir ko'rsatkichlari keltirilgan.

Deraza blokining umumiy foydali ish koeffitsiyenti

$$\eta = \tau - \frac{Q}{I \cdot F_1}, \quad (11)$$

bunda I - deraza bloki sirtiga tushuvchi quyosh nurlanishi, Vt/m^2 ; τ - deraza blokining nur o'tkazish koeffitsiyenti.

Suyuqlikli deraza blokining umumiy foydali ish koeffitsiyenti

$$\eta = \tau - \frac{\alpha_{ich} \cdot (T_x - T_{o_1})}{I} + \frac{\dot{m}c \cdot (T_{kir} - T_{chiq})}{IF_1}, \quad (12)$$

Suyuqlik oqimli deraza bloki passiv quyosh isitish tizimiga ega turar-joy binolarini yilning isitish mavsumi (noyabr, dekabr, yanvar, fevral va mart)da uchun issiqlik samaradorligini aniqlash bo'yicha hisoblash natijalari 1-2-jadvallarda keltirildi.

1-jadval.

Suv oqimli deraza blokli passiv quyosh isitish tizimini issiqlik samaradorligi ko'rsatkichlari.


No	I (Vt/m^2)	T_{at} ($^{\circ}C$)	ϑ (m/s)	T_{xona} ($^{\circ}C$)	Suyuqlik sarfı (kg/s)	T_s ($^{\circ}C$)	Q_s (Vt)	η_s (%)	η_u (%)
noyabr	258	6,1	3,3	22	0,002	20	19,5	17,2	71,8
dekabr	189,2	0,3	3,4	22	0,001	17,9	9,3	11,2	64,5
yanvar	224	-3,8	4	22	0,002	16,1	21,0	21,4	73
fevral	323	-2,0	3,9	22	0,001	13,3	13,6	9,6	61,5
mart	447	6,5	4	22	0,002	12,9	18,5	9,4	61,8

2-jadval.

Etilengilikol oqimli deraza blokli passiv quyosh isitish tizimini issiqlik samaradorligi ko'rsatkichlari.


No	I (Vt/m^2)	T_{at} ($^{\circ}C$)	ϑ (m/s)	T_{xona} ($^{\circ}C$)	Suyuqlik sarfı (kg/s)	$T_{etil.gil}$ ($^{\circ}C$)	$Q_{etil.gil}$ (Vt)	$\eta_{etil.gil}$ (%)	η_u (%)
noyabr	258	6,1	3,3	22	0,002	20	30,1	26,5	80,8
dekabr	189,2	0,3	3,4	22	0,002	18,2	21,7	26,1	78,8
yanvar	224	-3,8	4	22	0,001	16,2	4,9	5	58,2
fevral	323	-2,0	3,9	22	0,001	17,5	7,3	5,1	59,3
mart	447	6,5	4	22	0,001	19,8	17,3	8,8	63,6

Namunaviy 4 xonali turar-joy binosini $126,5 m^2$ yuzali maydonini isitish uchun issiqlik himoyasining I, II va III darajasi bo'yicha Navoiy va Toshkent viloyatlari hududida isitish mavsumi oylari uchun issiqlik yo'qitilishlari hisoblash natijalari 11-rasmda keltirildi.




11-rasm. Namunaviy 4 xonali turar-joy binosining isitish mavsumida issiqlik yo'qitilish ko'rsatkichlari

Namunaviy 4 xonali turar-joy binosini 126,5 m² yuzali maydonini isitish uchun issiqlik himoyasining birinchi darajasi bilan himoyalangan bino suyuqlikli deraza blokning issiqlik tashuvchisi suv va etilengilikol suyuqligi bo'lgan hol uchun Navoiy va Toshkent viloyatlari hududida energiya iste'moli va tejalgan energiya ko'rsatkichlarini hisoblashlar asosida aniqlandi, natijalar 12 va 13-rasmlarda ko'rsatildi.




12- rasm. Turar-joy binosini isitish mavsumida energiya iste'moli va suyuqlikli deraza buloki yordamida tejalgan energiya ko'rsatkichlari (Navoiy).



13- rasm. Turar-joy binosini isitish mavsumida energiya iste'moli va suyuqlikli deraza buloki yordamida tejalgan energiya ko'rsatkichlari (Toshkent).

Turar-joy binosini isitish mavsumi oylarida isitish uchun sarflanayotgan energiya miqdorini suyuqlik oqimli deraza bloki yordamida energiyani qoplash koeffitsiyentini o'zgarish dinamikasi Navoiy va Toshkent hududlari uchun hisoblashlar natijasi 14- rasmda tasvirlandi.



14- rasm. Turar-joy binosini isitish mavsumida energiya qoplash koeffitsiyenti ko'rsatkichlari.

